

BARCHASI SHU YERDAN UA SHU ONDAN BOSHLANADI

TA'LIM ZIYOSI

UNIVERSITET
GAZETASI

2-son

Gazeta ichida gazeta

BOBURNING MA'RIFAT BOG'LARI

Bog' yaratish va uni obod qilish an'anasi buyuk ajdodlarimizdan merosdir. Ushbu ezgu an'ana temuriyzodalar, xususan, Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan ham munosib davom ettirildi. "Bog'i Shahraro", "Bog'i Jahonoro", "O'rtabog'", "Bog'i vafo", "Bog'i Bobur" kabi bog'lar falak gardishi sabab o'zga yurtlarda qolib ketdi.

Bugun o'sha bog'lardan moddiy iz qolgan-qolmagani noma'lum. Ammo Bobur bobomiz qoldirgan ma'rifat bog'lari – bebaho adabiy, ilmiy va ma'naviy meros – asrlar osha butun insoniyatni bahramand etib kelmoqda.

O'zbek mumtoz she'riyat asrlar davomida o'z jozibasi bilan kitobxon qalbidan chuqur joy olib kelmoqda. Bobur ijodida insoniy fazilatlar, halollik, adolat, nafsaga berilmaslik g'oyalari yetakchi o'rin tutadi.

Bobur tarixnavis adib, nozik lirika sohibi va ijtimoiy masalalarga befarq bo'lmagan mutafakkir sifatida xalqimiz ma'naviy madaniyatida alohida o'rin egallaydi. Uning she'riyatida yor vasli, muhabbat, hijron, ayriliq iztiroblari va visol quvonchlarini nihoyatda nafis ifoda etilgan. Afg'oniston va Hindistonda yashaganiga qaramay, Bobur lirikasida Vatanga sog'in, yurtga qaytish orzusi keng aks etadi:

Kim ko'rubbur, ey ko'ngul, ahli jahondin yaxshilig'?

Kimki, ondin yaxshi yo'q, ko'z tutma, ondin yaxshilig'!

Gar zamonnin nayf qilsam ayb qilma, ey rafiq,

Ko'rmadim hargiz, netayin, bu zamondin yaxshilig'!

Og'ir sinovlarga qaramay, Bobur hayotni sevdi, umid va intilishdan to'xtamadi. U ijodni kelgusi avlodlarga ma'naviy meros qoldirish vositasi deb bildi:

G'ofil o'lma davlatda, o'zni solma mehnatda,

Tangri berur albatta, davlat ista, himmat tut!

"Boburnoma" asari Sharq adabiyotida nasr imkoniyatlarini yangi bosqichga olib chiqdi. Asar aniq, lo'nda, tarixiy haqiqatga sodiqligi bilan ajralib turadi. Unda badiiy tasvir va ilmiy mushohada uyg'unlashgan:

"...Rub'i maskunda Samarqancha latif shahr kamroqdur. Beshinchi iqlimindur... Shahri Samarqanddur, viloyatini Movarounnahr derlar..."

Bobur nafaqat buyuk shoir va olim, balki yirik davlat arbobi va sarkarda ham edi. U Hindistonda Boburiylar sulolasiga asos solib, bu mamlakat tarixida chuqur iz qoldirdi.

TURKIY TAFAKKUR
SARBONI

Ma'naviyat va ma'rifat haqida so'z borganda, xalqimizning olamshumul siymolari, buyuk ajdodlarimiz merosi yodga olinadi. Ularning hayoti va ijodi bugungi avlodni haqiqiy inson bo'lishga, ma'naviy yuksalishga chorlaydi. Ana shunday ulug' mutafakkirlardan biri – turkiy tafakkur sarboni, buyuk shoir va davlat arbobi Alisher Navoiydir.

Globallashuv jarayonlari tobora kuchayib borayotgan bugungi davrda Navoiy merosiga qayta-qayta murojaat etish, uning asarlarida ilgari surilgan insonparvarlik, ezgulik va kamolot g'oyalari yoshlar ongiga singdirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shoirning ibratli hayoti va beqiyos adabiy merosini targ'ib etish har bir ziyolining muqaddas burchidir.

Bugun Navoiy orzu qilgan insoniy fazilatlar, ezgu g'oyalar hayotimizda tobora mustahkam qaror topmoqda. U har bir inson dunyoga yuksak maqsad va pok niyatlar bilan kelishi lozimligini ta'kidlagan. Biz, bugungi avlod vakillari, ana shu ulug' ajdodga munosib bo'lishga intilmoqdamiz.

Alisher Navoiy sharq adabiyotida mavjud deyarli barcha janrlarda o'zbek tilida yuksak badiiy asarlar yaratib, o'zbek adabiy tilining qudrati va boy imkoniyatlarini butun dunyoga namoyon etdi. U nafaqat

buyuk shoir, balki yurt ravnaqi va xalq farovonligi yo'lida fidokorona xizmat qilgan davlat va jamoat arbobi sifatida ham tarixda o'chmas iz qoldirdi.

G'arb adabiyotida Jyul Vern, Gerbert Uells kabi yozuvchilar kelajakni ilg'ay olgan ijodkorlar sifatida e'tirof etilsa, Alisher Navoiy ham bu borada yuksak tafakkur sohibi bo'lgan. Uning "Sab'ai sayyor" dostonida eskalator va lift, "Farhod va Shirin"da oyna orqali olamni ko'rish – bugungi televizor g'oyasi, robotlar, o'q o'tmas liboslar haqidagi tasvirlar bunga yorqin misoldir. "Saddi Iskandariy" asarida esa suv osti kemalari haqidagi fikrlar ilgari surilgan. Olti asr avval aytilgan bu g'oyalar bugun insoniyatni hanuz hayratga solmoqda.

Navoiy adabiyot va san'atning chinakam homiysi bo'lgan. Iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlab, ularning kamolotiga bevosita hissa qo'shgan. Kamoliddin Behzod, Xondamir, Sulton Ali kabi buyuk ijodkorlar Navoiy homiyligida yetishib chiqqan. Uning sa'y-harakati bilan Hirot ilm-fan va san'at markaziga aylangan.

Shoir "Majolis un-nafois", "Vaqfiya", "Mahbub ul-qulub" kabi asarlarida jamiyat hayoti, mahalla muhitining ahamiyati, insoniy munosabatlar, saxovat va adolat masalalariga alohida e'tibor qaratadi. U o'z mablag'i hisobidan madrasa, masjid, ko'pri, hammomlar bunyod ettirib, obodonchilik ishlariga bosh-qosh bo'lgan.

Tarixiy manbalarga ko'ra, Hirotda o'nlab ijtimoiy inshootlar aynan Navoiy tashabbusi bilan qad rostlagan.

Buyuk mutafakkir barcha asarlarida inson manfaatlari himoya qiladi, kishilarni o'zligini anglashga, tafakkur qilishga chorlaydi. Uning:

O'z vujudingga tafakkur aylagil,

Har ne istarsen, o'zungdin istagil, –

degan satrlari hamon o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Ayniqsa, "Farhod va Shirin" dostonidagi Farhod obrazi bugungi yoshlar uchun yetuklik, bilimdonlik va fidoyilik timsolidir. Farhod jismonan baquvvat, ma'nan yetuk, turli fan va hunarlarni puxta egallagan barkamol inson sifatida tasvirlanadi.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy Sharq va G'arb tafakkurini bog'lagan buyuk siymo, ma'naviy yuksaklik sari yetaklovchi charog'bondir. Mumtoz adabiyot osmonidagi eng baland cho'qqi – bu Navoiydir. Istiqlo'l bizga ana shu cho'qqilarga chiqish, bebaho ma'naviy merosdan bahramand bo'lish imkonini berdi. Bu ne'matdan oqilona foydalanish, ajdodlar merosiga munosib bo'lish barchamizning vazifamizdir.

Gulandom TOG'AYEVA,
O'zbek adabiyotshunosligi
kafedrası dotsenti, filologiya fanlari
nomzodi



"Boburnoma" esa jahon tarixnavisligi durdonalaridan biriga aylandi. Uning g'azal va ruboiylari turkiy she'riyatning noyob namunalari, "Mubayyin", "Xatgi Boburiy", aruz va harb ishiga oid risolalari esa ilm-fan rivojiga salmoqli hissa bo'ldi.

Bobur lirikasida inson qalbi, muhabbat va sadoqat go'zal ohangda kuylanadi:

Xazon yaprog'i yanglig' gul yuzung hajrida sarg'ardim,

Ko'rub rahm aylagil, ey lola ruh, bu chehraiz zardim.

Sen ey gul, qo'ymading sarkashligingni sarvdek hargiz,

Ayog'ingga tushub bargi xazondek muncha yolvordim.

XX asrda Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" romani Bobur siymosini xalqimizga yanada yaqinlashtirdi. Adib Bobur zamonasini yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlab, ajdodimizning ichki olamini o'quvchiga teran his qildirdi.

Bobur o'z qalb harorati va tafakkurini she'riy asarlariga, "Boburnoma"day o'lmas qomusga joylab, avlodlarga meros qoldirdi. Hind va jahon olimlari bu asarni XVI asr uchun noyob ma'naviy hodisa deb e'tirof etadilar. Hindistonning buyuk arbobi Javohirlal' Neru Bobur shaxsini yuksak baholab, uni Uyg'onish davri hukmdorlariga qiyoslaydi.

Bugun boburshunoslik dunyo miqyosida izchil davom etmoqda. Daraxt ko'kka intilgani kabi, biz – avlodlar ham buyuk ajdodlarimizga intilamiz. Bobur bobomiz yoqqan ma'naviyat va ma'rifat chiroqlari aslo o'chmaydi, balki kelajak yo'llarimizni hamisha yoritib boradi.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, xususan, "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da belgilangan ustuvor yo'nalishlar yosh avlodni har tomonlama barkamol, mustaqil fikrlaydigan, nutqi ravon va ma'naviy yetuk shaxs sifatida tarbiyalashni dolzarb vazifa sifatida ilgari surmoqda. Bu jarayonda milliy adabiy merosga tayangan holda ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etish alohida ahamiyat kasb etadi. Ana shunday bebaho meros egalari biri – buyuk shoir, qomusiy olim, davlat arbobi va mohir sarkarda Zahiriddin Muhammad Boburdir.

SO'ZIMNI O'QUB,
ANGLAG'AYSEN
O'ZUMNI

So'nggi yillarda Bobur tavalludiga bag'ishlab o'tkazilayotgan ilmiy-amaliy anjumanlar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, nashr etilayotgan tadqiqotlar natijasida boburiyshunoslikning yangi bosqichi shakllandi. Bu jarayonda yosh avlod vakillarining Bobur shaxsiyati va ijodiga bo'lgan qiziqishi yanada ortib bormoqda. Chunki Bobur ijodi – bu nafaqat tarixiy xotira, balki bugungi kun uchun ham muhim bo'lgan hayotiy hikmatlar, axloqiy mezonlar va nutq madaniyatining yuksak namunasidir.

Ulug' bobokalonimizning quyidagi satrlari bejiz aytilmagan:

Vasling mured ersa, ayla yod Boburni,

Unutmagil bu nomurod Boburni.

Darhaqiqat, Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsiyati haqida qancha so'z yuritilmasin, baribir kamlik qiladi. U Buxoro yoki Bag'dod kabi mashhur ilm markazlarida tahsil ko'rish imkoniga ega bo'lmagan bo'lsa-da, o'zining favqulodda zakovati, teran tafakkuri va ilohiy iste'dodi bilan jahon adabiyoti va madaniyatida o'chmas iz qoldirdi. Bobur ijodi bugungi yosh avlod uchun ham ma'naviy tayanch, hayotiy maktab vazifasini bajaradi.

Yoshlarni ona tiliga muhabbat, nutq madaniyati va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, avvalo, buyuk ajdodlarimizning adabiy merosini chuqur o'rganish orqali amalga oshiriladi. Bobur ijodida so'z qudrati, fikr aniqligi va nutq ravonligi alohida o'rin tutadi. Uning:

"Davlatqa yetib mehnat elin unutma", degan hikmatli satrlari nafaqat axloqiy nasihat, balki nutqiy ta'sir kuchiga ega bo'lgan badiiy ifoda namunasidir. Bu kabi misralar yosh avlod qalbidan mas'uliyat, kamtarlik va insonparvarlik tuyg'ularini mustahkamlaydi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning nutqiy salohiyatini oshirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Shu jihatdan Boburning so'zga, yozma va og'zaki nutqqa bo'lgan talabchan munosabati e'tiborga molikdir. U o'g'li Humoyunning yozgan maktublarini sinchiklab tahlil qilib, fikrni ortiqcha dabdabasiz, ravshan va sodda ifodalash zarurligini ta'kidlaydi. Bobur nazarida mazmunsiz, takallufli iboralar nutqning ta'sirchanligini pasaytiradi. Uning Humoyunga yozgan nasihatlar bugungi nutq madaniyati talablari bilan hamohangdir.

Bobur rasmiy yozishmalarni ham doimiy nazorat qilib, til va imlo masalasiga nihoyatda jiddiy yondashgan. Turk tilining arab imlosida to'liq ifodalanmasligini chuqur anglab, yozuvni soddalashtirishga intiladi va "Xatti Boburiy"ni yaratadi. Bu tashabbus uning yosh avlod savodxonligini oshirish, yozma nutqni rivojlantirish yo'lidagi muhim qadamlaridan biri bo'ldi.

Bobur ijodida vatanparvarlik g'oyasi yetakchi o'rin tutadi. Vatandan uzoqda o'tgan yillari shoir qalb iztiroblarini chuqur va ta'sirchan satrlar orqali ifodalagan bo'lsa-da, ona yurtiga xiyonat qilish yo'lini tanlamadi. Uning quyidagi satrlari shoirning ruhiy kechinmalarini yaqqol namoyon etadi:

Ulki oylar, yillar o'tkirgay g'am bila, motam bila,

Shodu xurram bo'lmagay navro'z ila, bayram bila.

Bobur farzandlarini ham mehr-oqibatli, saxovatli, ahil bo'lib ulg'ayishiga alohida e'tibor qaratadi. U Humoyunga qilgan nasihatlarida aka-uka o'rtasidagi totuvlik, kattalarga hurmat va xalqparvarlik g'oyalari ustuvor deb biladi. Bu jihatlar Bobur ijodining tarbiyaviy ahamiyatini yanada oshiradi.

Bobur o'z hayoti va boshidan kechirgan voqealarni "Boburnoma" orqali avlodlarga bebaho ma'naviy meros sifatida qoldirdi. Shoirning:

Har vaqtgi, ko'rgaysen mening so'zimni,

So'zimni o'qub, anglag'aysen o'zumni,

degan satrlari uning ijodini anglash orqali shaxsiyatini anglash mumkinligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi yosh avlodning nutqiy salohiyatini oshirish, mustaqil fikrlash, ona tiliga hurmat va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Uning boy adabiy merosi umumta'lim maktablari va oliy ta'lim muassasalarida adabiy ta'lim jarayonida samarali qo'llanishi lozim. Bobur ijodini o'rganish orqali yoshlar nafaqat badiiy nutq sirlarini, balki hayotiy hikmat va ma'naviy komillik yo'lini ham anglaydilar.

Rayxon RASULOVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti

ELNI SANGA TOPSHURDIM

Sharqning ko'plab taxt vorislaridan farqli o'laroq, Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzo hayot sinovlari, qarindosh-urug'lar tomonidan ko'rsatilgan nomardlik va xiyonatlarga qaramay, kechirimlilik va oqibat yo'lidan og'madi. Ukalari, amaki va tog'alaridan ko'rgan javr-u jafolariga qaramasdan, ularni bag'riga oldi, mehr ko'rsatdi.



Har ikki ukasini Kobulga, keyinchalik Hindistonga olib borib, tarbiyaladi va qadrladi. Farzandlarining xatolariga ham sabr bilan munosabatda bo'ldi. Umrining so'nggi nafasiga qadar o'g'il-qizlari o'rtaqidagi munosabatlar, sulolaning kelajagi haqida qayg'urdi. Zero, saltanat taqdiri boburiyodalarning o'rtaqidagi ahillik va birlikka bog'liq ekanini chuqur anglagan edi.

Boburiy hukmdorlar orasida eng ko'p sinov va mashaqqatlarni boshidan kechirgan shaxs Humoyun Mirzo bo'ldi. Hazrati Bobur vafotidan so'ng u og'ir sharoitlarda, murakkab siyosiy vaziyatda davlatni boshqardi. 1556-yilgacha toj-u taxt mashaqqatlarini chekib, otasi asos solgan saltanat poydevorini mustahkamlashga intildi.

Bobur Mirzo zuriyodlari orasida Komron Mirzo, Gulbadanbegim, Zebunisobegim, Shoh Olam, Bahodirshoh II kabi ijodkor shaxslar yetishib chiqdi. Ko'pchilik noma'lum bo'lsa-da, Humoyun Mirzo ham nozik didli, lirik qalb egasi bo'lgan shoir edi. Uning quyidagi she'ri zamondoshlari orasida mashhur bo'lgan:

G'ariblig' g'amidin mehnat-u malolim bor,
Bu g'amdin o'lumg'a yetdim, g'arib holim bor.

Visoli davlatidin ayrilubmen mahzun,
Tirikmen, bu tiriklikdin infiolim bor.

Humoyun Mirzoning o'limi bilan bog'liq ikki sirli jihat tarixda hanuz muhokama qilinadi. U bobosi Umarshayx Mirzoga o'xshab tasodifiy fojea oqibatida – kutubxona pillapoyasidan to'yib halok bo'lgan. Bobur Mirzo singari 48 yoshida bu foni dunyoni tark etdi.

Bobur Mirzo quyidagi satrlarda ham davlat va el taqdirini Humoyunga ishonib topshirganini ko'ramiz:

Yillar tilab ishni qayu saxlab turdim,

Yuz jahd bila ishni munga yetkardim.

Mardona bo'l, emdi yaxshidir ish kelishi,

Tengriga seni, elni sanga topshurdim.

Afsuski, Boburning ahillik, kechirimlilik va oqibat haqidagi pand-nasihatlariga Komron Mirzo amal qilmadi. Nafs yo'lidan borib, akasi Humoyunga qarshi bosh

ko'tardi. Bobur Mirzo bu xavfni oldindan sezib:

Nafs dushmandurur, yaqin bilgil,

Do'stim, bu so'zimni chin bilgil, – deya

ogohlantirgan edi. Nasihatlariga quloq

solmagan Komron Mirzo oqibatda ukasi

Hindol Mirzoning halok bo'lishiga sabab bo'ldi.

1551-yilda Hindol Mirzo Komronning

yigitlari tomonidan

jangda o'ldirildi. Bu voqea

Humoyunni chuqur iztirobga soldi. Shunga qaramay, u

otasiga bergan va'dasiga sodiq qoldi: Komron

Mirzoning qonini to'kmadi, biroq uni ko'r qilish bilan

jazoladi. Tarixiy manbalarga ko'ra, Komron Mirzo

rafiqasi Chuchukbegim bilan Makkaga yo'l oldi va

1557-yilda Arabistonda vafot etdi. Mirzo Askariy

ham 1558-yilda hajdan qaytayotib Damashq

yaqinida halok bo'ldi. Bu fojealar Boburning:

Davlat uchun ko'ngulni zor etma,

Izzat uchun o'zingni xor etma,

– degan o'g'itlariga amal qilinmagani oqibati edi.

Komron Mirzo murakkab, ziddiyatli shaxs

bo'lsa-da, iqtidorli shoir sifatida ham tarixda qoldi.

U ham otasi singari nafis va jo'shqin she'rlar bitib,

hayotning bevafo jihatlarini kuylagan.

Zahiriddin Muhammad Bobur esa oilasiga,

xususan, zavjalari va qizlariga alohida e'tibor

qaratgan. Qizlarining ta'lim-tarbiyasi uning

doimiy diqqat markazida bo'lgan. Dildorbegimdan

tug'ilgan Gulchehrabegim, Gulrangbegim va

Gulbadanbegim zamonasining komila

ayollari bo'lib yetishdi. Gulbadanbegimning

"Humoyunnoma" asari Bobur Mirzo ruhini shod

etgan nodir tarixiy va adabiy manbaadir.

Zahiriddin Muhammad Bobur tom ma'noda fidoyi

ota edi. "Boburnoma"dagi farzandlariga yozgan

maktublari, ularning kelajagi haqidagi tashvishlari

har qanday o'quvchini bafarq qoldirmaydi. U

farzandlarining komil inson bo'lib voyaga yetishini orzu

qildi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Bobur ekan

nihollar og'ir sinovlar orqali bo'lsa-da, o'zini tiklay

oldi. U yaratgan sulola Hindiston tarixida 332 yil

davomida yashab keldi. Bobur Mirzoning yaxshilik,

kechirimlilik, odamiylilik, e'tiqod va hayotni sevishga

chorlovchi o'g'itlari bugungi yoshlar uchun ham bebaho

ibrat maktabidir.

Nafisa RAXMANOVA,

O'zbek

adabiyotshunosligi

kafedrası katta

o'qituvchisi

MUMTOZ ADABIYOTNI O'RGANISH
TEKNOLOGIYALARI

Alisher Navoiy ijodi turkiy adabiyot taraqqiyotining eng yuksak bosqichini ifodalaydi. Uning badiiy, ilmiy va falsafiy asarlari asrlar davomida nafaqat adabiy meros, balki ma'naviy-tarbiyaviy manba sifatida ham xizmat qilib kelmoqda. Shu bois Navoiy asarlarini o'rganish adabiy ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Navoiy asarlarini o'rganish texnologiyasi quyidagi pedagogik yondashuvlarga tayangan holda amalga oshiriladi:

shaxsga yo'naltirilgan ta'lim nazariyasi;

kompetensiyaviy yondashuv;

faoliyatga asoslangan ta'lim konsepsiyasi;

adabiy-tahliliy metodologiya.

Mazkur yondashuvlar o'quvchining bilish faolligini oshirish, adabiy matnni chuqur anglash va shaxsiy munosabat bildirish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Modulli ta'lim texnologiyasi Navoiy ijodini tizimli va bosqichma-bosqich o'rganish imkonini beradi. O'quv material yirik mazmunli bloklarga ajratilib, quyidagi modullar asosida o'rganilishi mumkin:

Navoiy lirikasida ishq va inson konsepsiyasi;

"Xamsa" dostonlarida komil inson g'oyasi;

Navoiyning nasriy asarlarida ijtimoiy-falsafiy qarashlar;

Navoiyning adabiy-nazariy merosi.

Har bir modulda maqsad, o'quv vazifalari, matn tahlili va refleksiya bosqichlari belgilab olinadi.

Muammoli ta'lim texnologiyasi Navoiy asarlaridagi falsafiy va axloqiy masalalarni muammoli savollar asosida o'rganishga xizmat qiladi. Jumladan:

– Nima uchun Navoiy komil insonni jamiyat taraqqiyotining asosi deb biladi?

– Asarlarda adolat g'oyasi qanday ifoda etilgan?

Bu yondashuv o'quvchini mustaqil xulosa chiqarishga undaydi.

Komparativ tahlil texnologiyasi orqali Navoiy asarlari forsiy adabiyot (Nizomiy, Jomiy), turkiy va zamonaviy adabiyot namunalarini bilan qiyosiy o'rganiladi. Bu esa o'quvchilarning adabiy didi va tahliliy tafakkurini rivojlantiradi.

Zamonaviy texnologiyalar asosida o'qitish natijasida o'quvchilarda:

adabiy tahlil qilish kompetensiyasi;

ma'naviy-axloqiy xulosa chiqarish qobiliyati;

mustaqil fikrlash va bahs yuritish ko'nikmalari;

milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglash malakasi shakllanadi.

Alisher Navoiy nafaqat ulug' shoir, balki yuksak pedagogik qarashlarga ega mutafakkirdir. Uning ta'limga oid qarashlari ayniqsa, "Mahbub ul-qulub" asarida yaqqol namoyon bo'ladi. Navoiy ustoz shaxsiga alohida e'tibor qaratib, ilm berish faqat ma'lumot uzatish emas, balki ruhiy tarbiya ekanini ta'kidlaydi:

"Haq yo'lida kim senga bir harf o'rgatdi ranj ila,

Ayamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila."

Shoir ta'lim jarayonida tizimlilik, izchillik, munozara metodi, shogird qobiliyatini hisobga olish va ilm bilan amaliyot birligini muhim deb biladi. Uningcha, bilim insonni zulmatdan nurga olib chiquvchi kuchdir.

Alisher Navoiy merosi – inson ma'naviyatining bebaho manbaidir. Uning asarlarini o'rganish texnologiyasi ilmiy asoslangan va zamonaviy ta'lim talablariga mos bo'lishi zarur. Interaktiv, muammoli va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar Navoiy ijodini chuqur anglashga, adabiy ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Umida SHERMATOVA,
Chirchiq davlat pedagogika
universiteti dotsenti

KOMIL INSON: G'OYALAR VA
ZAMONAVIY TA'LIM MUHITI

Bugungi globallashuv va axborotlashgan jamiyat sharoitida ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifa – har tomonlama barkamol, ma'naviy yetuk, jamiyat taraqqiyotiga mas'ul komil insonni tarbiyalashdan iboratdir.

Navoiy ijodida komil inson masalasi faqat axloqiy yoki adabiy mavzu bo'lib qolmay, ta'lim-tarbiya, muhit, ustoz va shogird munosabatlari bilan uzviy bog'liq yaxlit tizim sifatida talqin etiladi. Shu jihatdan Navoiy g'oyalari bugungi zamonaviy ta'lim muhiti uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mutafakkir talqinida komil inson – faqat ilmiy shaxs emas, balki axloqan pok, adolatparvar, mehr-shafqatli, el-yurt manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo'ya oladigan yetuk shaxsdir.

"Xamsa", "Mahbub ul-qulub", "Lison ut-tayr" kabi asarlarda ilm va ma'naviyat bir-biridan ajralmas holda talqin qilinadi. Navoiy ustoz, muhit va shaxs kamoloti o'rtaqidagi uzviy bog'liqlikka alohida urg'u beradi. Uning tasviridagi ustoz – nafaqat bilim beruvchi, balki axloqan yetuk qalb tarbiyachisidir.

Navoiy asarlarini o'qitishda an'anaviy ma'lumot berish bilan cheklanib qolmasdan, asar qahramonlari misolida axloqiy muammolarni tahlil qilish, ularni bugungi hayot bilan qiyoslash, munozara va ijodiy topshiriqlar orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish muhimdir.

Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonida yaratilgan Farhod

obrazi Sharq adabiyotidagi komil inson timsollaridan biridir. Farhod nafaqat oshiq, balki ilmiy, mehnatsevar, jamiyat manfaatini shaxsiy istaklaridan ustun qo'ya oladigan barkamol shaxs sifatida tasvirlanadi. Navoiy uchun komillikning asosiy mezon – axloqdir. Farhod kuch-qudrat sohibi bo'lsa-da, kamtar, rostgo'y va sadoqatlidir. Uzulm uchun emas, adolat va xalq manfaati yo'lida yashaydi. Shu bois shoir Farhod obrazi orqali haqiqiy yetakchi va murabbiy, avvalo, komil inson bo'lishi shartligini uqtiradi. Dostonda tasavvufiy g'oyalar ham chuqur badiiy ifoda topgan bo'lib, majoziy ishq orqali haqiqiy ishqqa yetish, ilohiy kamolot sari intilish g'oyasi Farhod timsolida mujassamd.

Dostonda shahzoda Abulfavoris Shohg'arib Mirzoga qaratilgan nasihatlar orqali ham kamolot yo'llari ko'rsatib beriladi. Navoiy Iskandar Zulqarnayn va Mirzo Ulug'bekni ibrat sifatida tilga olib, fiqh, hadis, tafsir, tibbiyot va hikmat ilmlarini egallashni muhim deb biladi. Bu jihat Navoiy tafakkurida ilmning keng qamrovli va hayotiy ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Shuningdek, "Farhod va Shirin" dostonida ilmiy-tafakkuriy bashoratlari ham uchraydi. "Oynai jahon" orqali tasvir uzatilishi, temir odamlar haqidagi tasvirlar shoir tafakkurining naqadar yuksak ekanini tasdiqlaydi. Keyinchalik ilm-fan tomonidan tasdiqlangan bu g'oyalar Navoiy tafakkurining zamonlardan ilgari ketganini ko'rsatadi.



Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy ilgari surgan komil inson g'oyasi bugungi zamonaviy ta'lim tizimi uchun ham muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Navoiy merosiga tayangan holda ta'lim jarayonini tashkil etish milliy ma'naviy qadriyatlar bilan zamonaviy pedagogik yondashuvlarni uyg'unlashtirishning samarali yo'lidir. Navoiy o'qitish – faqat adabiyot fani emas, balki har bir pedagog zimmasidagi ma'naviy mas'uliyatdir. Chunki Navoiy orzu qilgan komil inson – bilimli, fidoyi, axloqan pok va xalq dardi bilan yashaydigan shaxsdir. Ana shu idealni ta'lim jarayoniga tatbiq etish esa har qanday davr ta'limining eng oliy maqsadi bo'lib qolaveradi.

Nodira XOLIKOVA,
O'zbek adabiyotshunosligi
kafedrası mudiri, filologiya fanlari
doktori, dotsent

Ushbu qo'shsahifa Chirchiq davlat
pedagogika universitetining
O'zbek adabiyotshunosligi
kafedrası tomonidan
tayyorlandi.